



Tadqiqot uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



№22

30 ноябрь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
25-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
22-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-25**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
22-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-25**

ТОШКЕНТ-2020



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 22-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

1. Bobomirzayeva Dilrabo Adxamjonovna	
GEOGRAFIYA TA'LIMIDA DIDAKTIK O'YINLAR AHAMIYATI	7
2. Sharipova Muqaddas Ziyavitdinovna	
HOZIRGI GEOGRAFIYANING VUJUDGA KELISHI	9



ГЕОГРАФИЯ

GEOGRAFIYA TA'LIMIDA DIDAKTIK O'YINLAR AHAMIYATI

*Bobomirzayeva Dilrabo Adxamjonovna,
Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani
13- umumiy orta ta'lim maktabi
geografiya fani o'qituvchisi,
Tel: 93 497 88 17*

Annotatsiya: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kengaytirishda «Geografiya» fanining o'ziga xos o'rni bor. Buning uchun «Geografiya» fanini o'qitishda noan'anaviy dars usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada «Geografiya» fanini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish imkoniyatlari haqidagi tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: geografiya, o'yin, o'quvchilar, topshiriq, bilim, ko'nikma

Geografiya fanini zamon talablari darajasida o'qitish, darsning sifat va samaradorligini hamda o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni oshirish har bir o'qituvchi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Yangilanayotgan ta'lim tizimida yakuniy natija, xohlaymizmi, xohlamaymizmi, bevosita ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshiradigan o'qituvchi mehnatining qanday tashkil etilishiga borib taqalaveradi. Bu vazifani xal qilish uchun yoshlarni hayotga, mehnatga tayyorlashning yangi texnologiyasi, metod, usul, vositalardan foydalanish lozim bo'ladi. Ta'lim zimmasiga qo'yilayotgan ulkan vazifalar esa ta'lim berishga munosabatni, yondoshuvni o'zgartirishni taqozo etmoqda. Geografiya darslarida foydalaniladigan metod va usullar o'quvchilarning amaliy faoliyatida bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llash, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqillik, irodani tarbiyalash, ma'naviy va estetik dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, diqqat, xotira, nutq, tafakkur, solishtirish, ijodiy qobiliyat va boshqalarni rivojlantiradi. O'quv mashg'uloti o'yinlar, munozara, vaziyatga doir topshiriqlar va boshqa o'qitish, shakl va usullarida olib boriladi.

“Besh daqiqa” o'yini. Bu o'yinni geografiyada xohlagan mavzuni o'rganishda qo'llash mumkin. O'quvchilarni stol atrofida shunday joylashtirish kerakki, bir-birining nima yozayotganligini ko'rmasin. O'yinni o'qituvchi yoki a'lochi o'quvchi boshqarib borishi mumkin. U vazifani tanlaydi. O'quvchi besh daqiqa ichida topshirilgan topshiriqni bajaradi. O'quvchilar yozishni bir vaqtda tugatishi shart. Masalan, geografiyadan joy nomlari bo'lsa eng ko'p nom yozgan va uni izohlab bergan o'quvchi g'olib hisoblanadi.

“Aylana” o'yini. O'yinga ishtirok qiluvchilar doira shaklida turadilar. O'yin quyidagicha boshlanadi: boshlovchi o'quvchi —Toshkent desa, undan o'ngda turgan o'quvchi shaharning oxirgi harfi ya'ni —t harfi bilan boshlanuvchi O'zbekistondagi boshqa bir shaharni aytadi. Masalan: Toshkent – Termiz – Zarafshon yoki Katta Qo'rg'on – Namangan va hokazo. Qaysi o'quvchi 5-10 sekund davomida shahar yoki joy nomini ayta olmay to'xtalib qolsa u o'yindan chiqqan sanaladi. O'yin bitta o'quvchi qolguncha davom etiriladi, eng oxirida qolgan o'quvchi g'alaba qilgan hisoblanadi.

«Rasmda qanday geografik hodisa yoki ob'yekt tasvirlangan» o'yini. Bu o'yinni o'tkazish uchun oldindan turli geografik hodisalar va ob'yektlarni tasvirlovchi rasmlar tayyorlanadi. O'yin paytida rasmlar ko'rsatiladi yoki chaqirilgan o'quvchiga beriladi. O'quvchilar rasmda nima tasvirlanganligini aytadi va uni izohlaydi. Bunda rasmlarda yozuvlar bo'lmasligi kerak. Misol: 4-rasmda qanday ob'ekt tasvirlangan?, Qaysi rasmda u to'g'ri tasvirlangan va h.k.

Topishmoqlardan darsda samarali foydalanish o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini, zukko va fikrlar teranligini, topqirligini oshirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida ruhiy charchashni oldini oladi. O'qituvchiga esa o'quvchilarni ichki, dunyosini o'rganishga, ularning individual



xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Geografik atama, hodisa, joy nomlari va boshqalarni topishmoqlar asosida bayon etilishi o'quvchilarni unga mos javobni topish uchun bilgan barcha ma'lumotlarni eslashga, geografik xaritalarni tasavvur qilish, materiklar, davlatlar, rayonlar bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarni yodda saqlashga o'rgatadi.

Bu «Geografik topishmoqlarni» yozishdan maqsad o'quvchilar bilimini baholashda noan'anaviy usullardan foydalanib o'tilgan dars samaradorligini oshirishdan iboratdir:

To'rt tomoning aniqlab berar,
Darajada joylar aks etar.
Osmondami, suvda, o'rmonda,
Sayohating chog' asqotar (Kompas)

Yer yuzida shunday nuqta bor.
Kecha-kunduz farqlanmas unda.
Yulduzi ham so'nmaydi zinhor,
Charaqlaydi kunda va tunda. (Shimoliy qutb)

Xulosa qilib aytganda, o'yin o'quvchilarda geografik ob'ektlarning qiyofalari va fazoviy joylashishini bilib olish ko'nikmalarini tarbiyalashga yordam beradi. Har bir pedagogik texnologiyaning didaktik funktsiyalar ketma-ketlik algoritmi turlicha bo'lishiga qaramay, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning dars jarayoniga tatbiq etganda ta'lim oluvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ma'lum bo'ldi: o'rganilayotgan mavzuni oldin o'tilgan mavzu bilan bog'liqligini izlab topadilar; birgalikda o'tilayotgan o'quv materialini faol muhokama qiladilar; shaxsiy fikrlarni shakllantirdi, g'oyalarni ilmiy asoslangan holda isbotlaydilar; bir-birlarining muvaffaqiyatlarini ko'rsata oladilar; berilgan ishni oxiriga yetkazishda bir-birlarini qo'llab- quvvatlaydilar; individual farqning mavjudligiga qaramasdan hamkorlik asosida ishlaydilar; ma'lum bir vazifani bajarish uchun tuzilgan jamoada yoki kichik guruhda ishga mas'uliyat bilan yondashadilar; o'z kamchiliklarini ko'ra oladilar; bir-birlarini diqqat bilan tinglashga o'rganadilar

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. - T.: RBIMM, 2008
2. Saydamatov F. Geografiya o'qitish metodikasi. Ma'ruzalar matni. Nizomiy nomidagi TDPU, 2001 y.



HOZIRGI GEOGRAFIYANING VUJUDGA KELISHI.

Sharipova Muqaddas Ziyavitdinovna
Toshkent shahar Uchtepa tumani
236-umumiy o'rta ta'lim maktabi
geografiya fani o'qituvchisi
Telefon raqami: 90 930 33 55

Annotatsiya. Tor ma`nodagi geografiya Yer yuzasining fiziografiyasi, ya`ni uning doimiy, asrlar davomida tabiatning o`zi tomonidan belgilangan o`chmaydigan tuzulishini ham, inson qo`li bilan yaratilgan o`zgaruvchan, o`chadigan tuzilishini ham tasvirlashdir.

Kalit so`zlar. Petr Petrovich Semyonov, K.Ritter, gaz, qobiq, sayyora, L.S. Berg P.P.Semyonov, A.G. Isachenko, Fridrih Ratzel, Erdoberfläche, Biosfera, Pol Vidal de la Blash, peylar, xorologiya.

Geografiyning rivojlanishiga juda katta hissa qo`shgan allomalardan biri – sayyoh, geografik tadqiqotlar tashkilotchisi, buyk rus olimi Petr Petrovich Semyonov – Tyanshanskiydir (1827 – 1914). U geografiyaning predmeti va vazifalari masalalri bilan ham bevosita shug`ullangan. U K.Ritterning “Osiyo Yer bilimi” asarining rus tilidagi nashriga yozgan so`zboshida keng va tor ma`nodagi geografiyani farqlaydi. Keng ma`nodagi geografiya Yer sharini qattiq, suyuq va gaz qobiqlari bilan birgalikda, uning boshqa sayyoralarga va unda yashaydigan organizmlarga munosabati qonunlarini to`liq tadqiq qiladi. Uning firicha keng ma`nodagi geografiya tadqiqot predmetining o`zshashligi bilan o`zaro bog`liq bo`lgan fanlarning butun tabiiy guruhidir. Fanlarning bu guruhiga matematik geografiyani, Yerni vauning tuzilishi qonunlarini o`rganadigan tabiiy geografiyani, etnografiyani va statistikani kiritadi. L.S. Berg P.P.Semyonov – Tyanshanskiyning tor ma`nodagi geografiyasini mamlakatshunoslik deb hisoblagan edi.

A.G. Isachenko esa (1971) yadrosini tabiiy geografiya tashkil etadigan tabiiy fan deb hisoblaydi. XIX asrning so`ngi choragida geografiya Yer yuzasi haqidagi fan ekanligi to`g`risida tushuncha vujudga keldi. Bu tushuncha nemis geografi va geologi Ferdinand fon Rihtgofen (1833 – 1905) tomonidan rivojlantirildi. F.Rixtgofen geografiya o`simlikni Yer yuzasiga bo`lgan munosabatda, insonni esa butun tabiatga bo`lgan munosabatda o`rganish lozimligini ta`kidlagan edi. Geografiyaning eng asosiy maqsadi F.Rihtgofenga ko`ra, jonli tabiatning jonsiz tabiat bilan bog`lik ekanligini hisobga olgan holda insonning jonli va jonsiz tabiat bilan aloqalari va munosabatlarini ochib berishdan iborat. U geografiyaning o`rganish predmetini quruqlik, dengiz va atmosferaning o`zaro ta`sirdagi Yer yuzasi (Erdoberfläche) deb hisoblagan; geografiyaning o`ziga xos maqsadi Yer yuzasida mujassam o`zaro ta`sirda namoyon bo`ladigan turli hodisalarga e`tiborni qaratilishi lozim, deb hisoblaydi. Uning fikricha, Yer yuzasining har qanday qismini geografik jihatdan o`rganishni mukammal tabiiy geografik tasvirlashdan boshlash va shundan so`ng boshqa tabiiy tavsiflar va ularning o`zaro aloqalarini tadqiq qilish lozim. Fridrih Ratzel (1844 – 1904) sotsial geografiyaning tarkib topishiga asos solgan nemis olimi. U o`zining “Antropogeografiya” deb nomlangan asarida tabiiy fenomenlarning inson tarixi yo`nalishiga ta`sirini bayon qilgan. U asosiy e`tiborni tabiiy sharoitlarning insonga ta`sirini emas, balki inson faoliyatiga ta`sirini o`rgangan. F. Ratzelning asarlarida “Biosfera” termini (tushunchasi) ilmiy barqarorlikka ega bo`ldi va tan olindi. F. Ratzel geografik determinizmni sotsial darvinizm bilan to`ldirdi, ya`ni biologik qonunlarni ijtimoiy munosabatlarni o`rganishga ko`chirishga harakat qildi. U kengayishga intiladigan davlatning organizm sifatidagi g`oyaning ham asoschisidir. Pol Vidal de la Blash (1845 – 1918) – geografiyaning rivojlanishiga salmoqli hissa qo`shgan fransuz olimidir. Uning fikricha geografik tadqiqotlarda asosiy e`tibor uncha katta bo`lmagan bir xil hududlarni bevosita o`rganish yo`li bilan inson va uning bevosita atrof muhiti (milieu) orasidagi mujassam o`zaro aloqalarga qaratilmog`i lozim. Fransiyada bunday hududlarni “peylar (pays)” deb atash qabul qilingan. Vidal geografik tadqiqot metodri to`g`risida bir qator g`oyalarni ishlab chiqqan. U xorologiya (yun. choros joy; logos fan, ta`limot) konsepsiyasini hududning o`zaro ta`sirda bo`lgan Yer yuzasining muayyan joylarini ifodalaydigan birligi orqali bog`langan ob`yektlar va hodisalarni o`rganish metodi sifatida qo`llab – quvvatlagan. Uning fikricha “...geografiya ...bilimlarning umumiy xazinasiga o`zining tabiat qo`shgan narsalarni qismlarga bo`laklamaslik, umuman butun Yer yuzasida ham, ularning joylashuvining ayrim rayonlari doirasida ham narsalarning nisbati va aloqasini tushunish qobiliyatini kiritadi” deb



yoʻzgan edi (Jeys, Martin, 1988). Vidal de la Blash asos solgan fransuz geografiya maktabi geografiyaning tabiiy va ijtimoiy komponentlariga baravar eʼtibor bergan. Shu maktabning yorqin namoyondalaridan biri E. de Martonne asosan tabiiy geografiya bilan shugʻullangan. U geografiyadagi anʼanaviy bilimni geologiya, geofizika va biologik bilimlarning ishonchli asoslari bilan qoʻsha bilgan. Martonnega koʻra tabiiy geografiya hududning bir butun geografik tadqiqotini oʻz ichiga oladi. Uning fikricha, geografiya Yer yuzasidagi fizikaviy, biologik va inson faoliyati bilan bogʻliq hodisalarni, bu hodisalarning sababiy bogʻlanishlarini oʻrganadi. Uningcha geografiyaning predmetini fizikaviy, biologik va inson faoliyati bilan bogʻliq hodisalarning Yer yuzasi boʻyicha taqsimlanishi va bunday taqsimlanishning sabablari tashkil etadi. Shu davrning fransuz geograflari uchun geografiya ilmiy bilimning bir yoki bir necha sohasiga mansubligi, tabiiy va iqtisodiy geografiya orasidagi dihotomiya (yun. dika ikki qismga, tomë qirqma, kesma) masalalriga oid muammolar boʻlmagan. S.Valloh oʻzining “Geografiya fanlari (Les sciences geographiques)” degan kitobida tadqiqotning bir paytning oʻzida ham unitar (lot. unitas birlik), ham avtonom (yun. autos oʻzi, nomos qonun) maydoni, koʻpgina fanlar uchun esa yordamchi bilim sifatidagi geografiya toʻgʻrisidagi tasavvurini bayon qiladi (Jeys, Martin, 1988). Uning fikricha, geografiya nafaqat oʻzining juzʼiy falsafasiga ega, balki inson olami uchun oʻziga xos falsafa hamdir. Fransuz geograflarining tushunchasidagi rayon nemis geografi O. Shlyutter tasavvuridagi madaniy landshaft (Qoʻlturlandschaft) tusunchasiga deyarli oʻxshash. AQShlik geolog va geograf olim Nataniel Sautgeyt Sheylarning tadqiqolarida asosiy eʼtibor Yer yuzasini kixsilarning hayoti bevosita bogʻliq boʻlgan tabiiy resurslar manbai sifatida oʻrganishga qaratilgan boʻlib, inson va uning faoliyatini landshaftning bir qismi sifatida qaragan. Shuningdek, uning fikricha Yer yuzasidagi oʻzaro bogʻliq boʻlgan predmet va hodisalarni tusuntirishda oʻzgarish jarayonining ahamiyatini teran aniqlash lozimligini oʻqtirgan. N.Sheylar J.Marshdan keyin birinchilardan boʻlib inson faoliyati, ayniqsa tiklanmaydigan tabiiy resurslarning qashshoqlashuvi jarayonida, Yer yuzasining koʻrinishini oʻzgartirishiga eʼtibor qaratgan. U doimo Yerni insonning uyi sifatida oʻrganish zarur, deb hisoblagan. N.Sheylarning shogirdi taniqli AQShlik geograf Uilyam Morris Devis tabiiy geografiyaning, ayniqsa uning tarkibiy qismlaridan biri boʻlgan geomorfologiyaning rivojlanishiga juda katta hissa qoʻshgan. Uning maktablarda, kollejlarda va oliy oʻquv yurtlarida geografiyani oʻquv fani sifatida tashviqot qilishda oʻrni beqiyosdir. U.Devisda Yer toʻgʻrisida umumiy fan va bu fan doirasida u sayyorani shakllantiruvchi dinamik modelni yaratish gʻoyasi mavjud boʻlgan. Uning fikricha geografiyani oʻrganish kopgina tabiiy fanlarga oʻziga xos muqadima boʻlishi lozim edi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Абдуллаев З. Экологические отношения и экологическое сознание. Т.: Фан, 1990.
2. Ласкорин Б.Н., Барский А.Д., Персин В.З. Безотходная технология переработки минерального сырья. М.: Недра, 1984.
3. [www. Ziyouz.com](http://www.Ziyouz.com)

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(25-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000